

# **O‘ZBEKISTONGA RAQAMLI BANKLARNING KIRIB KELISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

*TDIU Iqtisodiyot fakulteti 4-bosqich talabasi*

*Tilabova Kumush Farhod qizi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida eng asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lgan jarayon – iqtisodiyotning raqamli bosqichga o‘tishi sharoitlarida O‘zbekistonga raqamli banklarning kirib kelishi, bank xizmatlarida raqamli va oddiy tizimlarning farqlari hamda ularning kelgusida rivojlanish istiqbollari qanday yo‘lga qo‘yilganligi haqida to‘xtalib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** raqamli bank, elektron muomala, mobil aloqa, internet, neobank, tijorat banki, chakana bank, an’anaviy bank, online kredit, fintech texnologiyasi.

**Abstract:** In this article, the process that is one of the main trends in the socio-economic development of the country - the entry of digital banks into Uzbekistan in the conditions of the transition of the economy to the digital stage, the differences between digital and ordinary systems in banking services and their future development prospects will be discussed.

**Keywords:** digital bank, electronic transaction, mobile communication, internet, neobank, commercial bank, retail bank, traditional bank, online credit, fintech technology.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается процесс, являющийся одной из основных тенденций социально-экономического развития страны - вхождение цифровых банков в Узбекистан в условиях перехода экономики на цифровую стадию, различия между цифровыми и обычными системами в банковских услугах и перспективы их дальнейшего развития будет обсуждаться.

**Ключевые слова:** цифровой банк, электронная транзакция, мобильная связь, интернет, необанк, коммерческий банк, розничный банк, традиционный банк, онлайн-кредит, финтех-технологии.

## Kirish

Insoniyat har kuni turli xildagi ma'lumotlarni ko'p miqdorda qabul qila oladi. Bu esa ko'p jihatdan mobil telefonlar, internet, smartfonlarning texnik imkoniyatlarining tobora ortib borayotganligi, odamlarning ijtimoiy tarmoqlarga jalb etilishi keskin oshgani va internet tezligining o'sib borayotgani bilan bog'liq.

Jahon moliya tizimida yuz berayotgan jiddiy o'zgarishlar, shuningdek mamlakatda milliy iqtisodiyotni keng ko'lamli isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar pul-kredit siyosatini shakllantirish, amalga oshirishda hamda bank tizimini yana-da rivojlantirishda yangicha yondashuv va prinsiplar qo'llanilishini taqozo qilmoqda.<sup>1</sup>

Albatta, bugungi kunda axborot tizimining sezilarli darajada o'zgarishi asosida jamiyat, hukumat, iqtisodiyot, biznes, savdo va bank sohasidagi tub o'zgarishlarni ham kuzatishimiz mumkin.

Shuningdek, so'nggi 20 yil ichida texnologiya butun dunyoda bank sohasiga ham tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada o'zgarishlarni olib kirdi. Internet va mobil aloqa butun dunyodagi odamlar va tashkilotlarni bog'laydigan eng chekka burchaklarga etib keldi. Bu esa mijozlarning uzoq navbatlardagi kutishlarini va tashkilotlarning ishlash prinsiplarini o'zgartirdi. Mobil aloqa va tegishli infratuzilmalar yordamida esa fintech<sup>2</sup> texnologiyasi(moliyaviy texnologiyalar) bank sektoriga kirib, xaridorlarga qulay bo'lgan turli xil mahsulotlarni ishga tushirdi.

Oxirgi yillarda dunyo hamjamiyatida kuzatilgan pandemiya bozor iqtisodiyotida pul oldi-berdi operatsiyalarining keskin o'zgarishiga turtki bo'ldi. Bunda banklar o'z mijozlarini saqlab qolish va zarar ko'rmasliglari uchun mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonini raqamlashtirishni taqozo qildi. Bu raqamli bankning boshlanishi bo'lgan avtomatlashtirilgan bankomatlarga bo'lgan talabni oshishiga olib keldi. Keyingi bosqich mijozlarning uzoq navbatdalarda kutish


---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-yanvardagi PF-5296-son Farmonidan

<sup>2</sup> **Moliyaviy texnologiya (Fintech)** - bu moliyaviy xizmatlarni etkazib berish va ulardan foydalanishni takomillashtirish va avtomatlashtirishga mo'ljallangan yangi texnologiyani tasvirlash uchun ishlatiladigan atama bo'lib bugungi kunda ta'lim, chakana bank, mablag' yig'ish va notijorat va investitsiyalarni boshqarish kabi turli sohalar va sohalarni qamrab oladi.

jarayonini isloh qilishni talab qila boshladi. Bu banklarni yaxshiroq innovatsiyalar, mahsulotlar va xizmat turlari bilan chiqishga undadi. Bugungi kunda, mijozlar bank xodimlarini jalb qilmasdan, o'z xohishlariga ko'ra, har qanday vaqtda bank muassasalari xizmatlaridan foydalana oladi. Raqamli bank bilan barcha yozuvlar raqamli shaklda saqlanadi, ma'lumotlar analitik usullarni qo'llash orqali foydali ma'lumotlarga talqin qilinadi, mijozlar bilan yaxshi aloqa o'rnatiladi va mijozlar bilan o'zaro ta'sir o'tkazish natijasida ko'proq biznes paydo bo'ladi. Bularning barchasi ish samaradorligini oshirish va bankning daromadini yaxshilashga olib keladi. O'zbekistonda naqd pulsiz iqtisodiyot haqidagi tasavvurni butun mamlakat bo'ylab kengroq yoyish, aholi raqamli savodxonligini oshirish hamda masofaviy Internetga ulanish orqali tezlashdi, chunki Internet-banking Covid 19 tufayli hozirgi zamon talabidir.

1-rasm



### **O'zbekistonda an'anaviy bank xizmatlarini 10 ballik shkalada baholash uchun o'tkazilgan so'rovnoma<sup>3</sup>**

Yuqoridagi o'tkazilgan so'rovnomaga ko'ra, aholi o'rtasida an'anaviy bank xizmatlarida foydalanish jarayonidagi mavjud muammolar haligacha o'z yechimini topmayotganligi, tizim ma'lum darajada o'zgarish va yangiliklar kiritilishni talab qilmoqda. Mavjud muammolarni o'rganganimizda, uzoq navbatlarda turish, xizmatlarning kechikishi, pul bilan bo'layotgan operatsiyalarda shaxsning to'g'ridan to'g'ri ishtirok etishi, banklarning xizmat xizmat ko'rsatish vaqtini chegaralangili,

<sup>3</sup> Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma

markaziy shaharlardan uzoqda joylashgan hududlardagi aholi uchun xizmatlardan foydalanish uchun shaxobchalar yoki bank filiallarining mavjud emasligi ko'zga ko'rinarli darajada aholiga qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Raqamli bank bu - tarmoqlari bo'lmagan, faoliyati elektron muomalaga asoslagan bank. Birinchi marta "raqamli bank" yoki «neobank» atamasi Kris Skinnerning 2014 yilda AQSHda nashr etilgan "Raqamli bank" kitobida batafsil bayon qilingan. 1989 yil Buyuk Britaniyada joylashgan First Direct banki mijozlarga ilk bora telefon orqali xizmat ko'rsata boshladi va Qiziqarli fakt shundaki, birinchi kunida 1000 ta qo'ng'iroq qabul qilingan. 2015-2020 yillar davomida Yevropa mamlakatlarida "raqamli bank" tushunchasi jadal rivojlandi. Raqamli banklar o'z mijozlariga yana-da qulay va foydali xizmatlarni taqdim etish uchun zamonaviy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanish prinsiplariga o'tishdi.

Yaqin yillarni ushbu tushuncha bilan birgalikda raqamli banklar O'zbekistonga ham kirib kela boshladi. O'zbekiston qonunchiligiga ilk marta raqamli bank tushunchasi Markaziy bankning "Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi nizom" loyihasida e'lon qilindi va qonunchilikka raqamli bank atamasi kirib keldi.

Unga ko'ra, raqamli bank – innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatini ko'rsatmasdan) bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo'linmasi. Raqamli banklar tomonidan bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatish bank ichki tartib qoidalariga asosan qonun hujjatlari talablarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.<sup>4</sup>

Raqamli bankni ro'yxatga olish tartibi an'anaviy banklar kabi bo'ladi. Mazkur tizim mijozlarga masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, vaqt, masofa va ortiqcha sarf-xarajatlarni tejash imkonini beradi. Mijozlar ehtiyojini qondirish darajasini oshirish aqlli bank imkoniyatlaridan foydalaniladi. Ko'p kanalli strategiya orqali mahalliy mobil ilovalar, Veb-ilovalar, filiallardan suhbatlar banki va

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi nizom" loyihasining "Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida nizom"ning birinchi bandi uchinchi xat boshidan olindi.

taqiladigan qurilmalar kabi ilg'or interfeyslarga qadar mijozlarning yana-da kuchli aloqasi va sodiqligi ta'minlanadi.

Shuni tan olishimiz kerakki, bir necha yillar avval moliya tizimida pul-kredit siyosatini yuritish va banklarni tartibga solishdagi imkoniyatlar amalda to'laqonli foydalanilmayotgandi. Shuningdek, pul-kredit instrumentlarining lozim darajada ishlashi va samaradorligini ta'minlovchi transmission mexanizmlarning rivojlanmaganligi qo'yilgan maqsadlarga erishishni bir muncha qiyinlashtirayotgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bir qator tijorat banklarining boshqaruv va risk-menejmenti sifatiga ta'sir qilish mexanizmlarining takomillashmaganligi hamda banklar faoliyatiga ma'muriy aralashuv amaliyotining davom etayotganligi kuzatishimiz mumkin, ayniqsa, banklar tomonidan o'z faoliyatiga xos bo'lmagan korxonalar tashkil etilishi, shuningdek ularning faoliyat yo'nalishiga muvofiq bo'lmagan vazifalarning yuklatilishi bank nazoratini ta'sirchan amalga oshirishni anchagina qiyinlashtirayotgan edi.

Prezidentning 2018 yil 9 yanvardagi PF-5296 sonli "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni imzolangach, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va bank bo'linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yana-da kengaytirish vazifasi yuklatildi. Shundan kelib chiqib, 2020 yilda Anorbank va TBS Bank, O'zbekistonda raqamli bank sifatida ro'yxatdan o'tkazildi. Bu o'z navbatida O'zbekistonda bank xizmat ko'rsatish tizimidagi kamchiliklarning to'g'irlanishi va o'z navbatida pul-kredit almashinuv jarayonining raqamlashuviga hamda samaradorligining oshishiga turtki bo'ldi. Ushbu farmonda belgilab qo'yilgan bir qator chora-tadbirlar raqamli banklar istiqboli uchun asos bo'la oldi desak adashmagan bo'lamiz. Unga ko'ra, to'lov tizimini yana-da rivojlantirish, shu jumladan real vaqt rejimida tezkorlik bilan hisob raqamlarni boshqarish va bank operatsiyalarini o'tkazish imkonini beruvchi masofadan bank xizmatlari ko'rsatgan holda tijorat banklarining samarali axborot almashinuvi

tizimini tashkil etish, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatish uchun to'siqlarni bartaraf etish va sharoit yaratish, shu jumladan chakana xizmatlarga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va bank bo'linmalarini tashkil etish, innovatsion bank texnologiyalaridan faol foydalangan holda masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishni takomillashtirish maqsadida tanqidiy qayta ko'rib chiqilishi bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.<sup>5</sup>

Bu islohotlar esa o'z navbatida O'zbekistonda raqamli banklarning sonini ortishi, bank xizmatlarida sifat ko'rsatkichlarning ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Bunga yaqqol misol qilib, mamlakatimizda yaqin yillarda tashkil etilgan va aholiga xizmat ko'rsatayotgan bir qator raqamli banklarni misol qilishimiz mumkin. 2020 yilda o'z ish faoliyatini boshlagan "ANOR BANK" AJ - tijorat raqamli bankini olishimiz mumkin. Ushbu yangi innovatsion tizimli bank, tashrif buyurmasdan mijozlar va ularning biznesi uchun bank xizmatlarini to'liq taqdim etadi. Raqamli banklar odamlarga hayotda ham, biznesda ham bir qadam oldinda bo'lish imkonini beradi.<sup>6</sup>


Bankning bir qator afzalliklari mavjud. Barcha xizmatlarni saytdan, "Anorbank" mobil ilovasidan, yoki shunchaki sutkalik aloqa markaziga qo'ng'iroq qilib olish mumkin. Mamlakat aholisi yana-da mobilroq bo'lib qoldi, raqamli texnologiyalardan foydalanishni va ko'pgina xizmatlarni masofadan va dunyoning istalgan nuqtasidan sutka davomida olishni afzal ko'radi. Shaharda bankning odatiy bo'limlari yo'q, lekin u mamlakat bo'ylab millionlab qurilmalar orqali millionlab insonlarga xizmat ko'rsata oladi. Bunda har bir mijozga nisbatan individual yondashuv saqlangan bo'lib, ma'lumotlarga ishlov berishda xavfsizlik to'laqonli kafolatlangan va har qanday so'rovga maksimal operativ tarzda javob beriladi.

---

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-yanvardagi PF-5296-son Farmoni

<sup>6</sup><https://anorbank.uz/>

Siz qaysi xizmat turini afzalroq deb o'ylaysiz?



Yuqoridagi so'rovnomadan kelib chiqib bozor iqtisodiyotida ko'plab tarmoqlar va sohalarning raqamlashuvi ortib borsada, aholining ma'lum qismida zamonaviy xizmat turlarida ham ishonchsizlikni kuzatishimiz mumkinligini inobatga olinishi ham maqsadga muvofiqdir. Vaholonki bu jarayon mamlakat hududida raqamli banklar sonining ortishiga va iste'molchilar bank operatsiyalaridan foydalan jarayonini mobillashuvining ommalashishiga salbiy ta'sir o'tkazmay qolmaydi.

Bunga yechim sifatida esa aholi o'rtasida pul oldi-berdi jarayonlarini elektronlashtirish borasidagi bilim va tushunchalarini oshirish, tizimga bo'lgan ishonchsizlikni kamaytirishda raqamli xizmatlar sifatini yuqori darajalarga olib chiqishni taqozo qiladi.

Jismoniy shoxobchani raqamli bank bilan to'liq almashtirishga biroz vaqt kerak bo'ladi. Mijozlar qarz olish yoki uning shartlarini muhokama qilish kabi muhim qarorlar qabul qilishda odamlarning o'zaro ta'sirini afzal ko'rishadi. Biroq, raqamli bank xizmatlari takrorlanuvchi bank funksiyalari uchun qulay ekanligini isbotlamoqda. Vaqt mijozlar va xizmatlar uchun hal qiluvchi omil bo'lib, raqamli bilimli mijoz har doim o'z vaqtida taqdim etiladigan moslashtirilgan va uzluksiz raqamli xizmatlarni qidiradi.

Raqamli banklar faoliyatida iste'molchilar quyidagi bir qator afzalliklarga ega bo'ladilar:

<sup>7</sup> Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma

✓ hech qanday bo‘linmalar va navbatlarsiz, barcha hisob-raqamlar orqali sutka davomida har qanday joyda, faqatgina smartfon va internetga kirish orqali xohlagan operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin;

✓ amalga oshirilgan barcha to‘lovlar tushunarli va mutlaqo shaffof bo‘lib, operatsiyalarning to‘liq tarixni va andilikdagi to‘lovlarning jadvalini har doim mobil ilovadan ko‘rish mumkin;

✓ yirik shaharlardan yiroqda yashayotgan yoki biznes yuritayotganlarga bankka borishning hojati qolmaydi. Bunda raqamli banklarning o‘zi iste’molchining oldiga keladi;

✓ Raqamli tajribalar orqali kundalik bank faoliyatining murakkabligini olib tashlaydi va odamlarni moliyaviy hayotini nazorat qiladi;

✓ Bir kunda yigirma to‘rt soat davomida bank funksiyalaridan foydalanish imkoniyati;

✓ Qog‘ozsiz bank;

✓ Bank xizmatlarini chekka hududlarga kengaytiradi;

✓ Raqamli fond o‘tkazmalari yordamida qalbaki valyuta xavfini kamaytiradi;

✓ Mijozlar uchun maxfiylik va xavfsizlikni kuchaytiradi;

✓ Noto‘g‘ri joylashtirilgan kredit kartalari haqida xabar berish va darhol blokirovka qilish imkonini beradi;

✓ Noqonuniy pul muomalasini cheklaydi;

Valyutaga bo‘lgan talabni pasaytiradi;

Raqamli banklarning rivojlanish strategiyasining asosi - mijozga yo‘naltirilganlikdir. Ya’ni bank faqat mijozlar uchun ortiqcha ovoragarchiliklarsiz xizmat ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda raqamli bank – an’anaviy bank xizmatlarini avtomatlashtirishdir. Bu - mijozlarni jalb qilish, rentabellikni oshirish va nazorat qilishning kalitidir. Banklardagi xizmat ko‘rsatish mavjudligini Internet mavjudligi bilan almashtirish va mijozning filialga tashrif buyurish ehtiyojini yo‘q qilish orqali bank faoliyatini yana-da takomillashtiradi. Raqamli bank mijozlarga turli xil xavfsiz raqamli kanallar orqali operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi, shu bilan



birga bank ma'lumotlar xavfsizligi bilan ustunlik qiladi. Bunda onlayn va mobil bank xizmatlarini analitik, ijtimoiy media, innovatsion to'lov yechimlari va mobil texnologiyalar kabi eng yangi raqamli texnologiyalar bilan birlashtirish, mijozlar kutganidek qulayliklarning ortishiga olib keladi.

### **Foydalanilgan axborot resurslari**

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2018-yil 9-yanvardagi PF-5296 sonli "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
2. <https://depozit.uz/ru/news/ozbekistondagi-raqamli-banklar-va-ularning-istiqbollari>
3. <https://anorbank.uz/>
4. <https://hamkorbank.uz/uz/press-center/news/hamkorbank-eng-yaxshi-raqamli-bank/>
5. <https://www.forbes.com/advisor/banking/what-is-digital-banking/>
6. <http://futurebanking.ru>
7. <https://tbcbank.uz/uz/>
8. <https://uz.itpedia.nl/2018/05/22/wat-is-fintech/>